

2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot^{*)}

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatida 3512 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 903 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3030 ta (20,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17953 tani tashkil etgan.



^{*)} fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 17953 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,3 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,1 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	14923	17953	120,3	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2279	2663	116,8	14,8
Sanoat	2356	2911	123,6	16,2
Qurilish	1395	1861	133,4	10,4
Savdo	2825	3786	134,0	21,1
Tashish va saqlash	535	609	113,8	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1015	1167	115,0	6,5
Axborot va aloqa	193	204	105,7	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	203	251	123,6	1,4
Boshqa turlari	4122	4501	109,2	25,1

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5513 ta), Sharof Rashidov (2962 ta), Zomin (1470 ta), G'allaorol (1376 ta) va Forish (1243 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (397 ta), Zafarobod (508 ta) hamda Arnasoy (559 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17113 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2983 taga (21,1 %) o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5233 ta), Sharof Rashidov (2878 ta), Zomin (1392 ta), G'allaorol (1356 ta) va Forish (1190 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (371 ta), Zafarobod (440 ta) hamda Arnasoy (559 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-noyabr oylarida 3512 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 903 taga ko'pdir.

Yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (1043 ta), Sharof Rashidov (606 ta), Zomin (302 ta) va G'allaorol (274 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (83 ta), Zafarobod (89 ta), Arnasoy (120 ta), Mirzacho'l (128 ta), Do'stlik (137 ta) hamda Paxtakor (151 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1061 ta), sanoat (725 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (529 ta), qurilish (426 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (175 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (45 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (45 ta), tashish va saqlash (97 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (409 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga 13983 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4202 ta, oilaviy korxonalar – 729 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8718 ta va boshqalar 334 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Hududlar kesimida oilalar va
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Oilalar Soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.12.2018 yil	01.12.2019 yil
Jizzax viloyati	301 297	11 128	13 983
Jizzax shahri	37 360	3 652	4 525
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8 989	306	425
Baxmal	31 351	576	724
G'allaorol	39 704	864	1 090
Sharof Rashidov	51 364	2025	2 530
Do'stlik	12 472	405	509
Zomin	35 193	839	1 089
Zarbdor	17 119	493	588
Zafarobod	10 004	225	298
Mirzacho'l	11 051	318	433
Paxtakor	21 659	388	496
Forish	18 885	802	993
Yangiobod	6 146	235	283

**) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 9044 tani tashkil etib, ulardan 8718 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2312 taga yoki 34,3% ga oshganligini ko'rish mumkin.


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatda 2368 taga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57,6% ga ko'pdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.12.2019 yil		2019-yil yanvar-noyabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	9 044	8 718	2 368
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 561	1 479	382
Sanoat	1 760	1 706	457
Qurilish	1 349	1 308	377
Savdo	2 299	2 222	741
Tashish va saqlash	455	439	93
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	525	504	93
Axborot va aloqa	91	87	34
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	118	117	26
Boshqa turlari	886	856	165

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 25,5 %, sanoat 19,6 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17,0 %, qurilish 15,0 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 5,8%ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa axborot va aloqa 1,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,3 %, tashish va saqlash 5,0 % va boshqa faoliyat turlarida 9,8 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13937 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 25,7 % ga oshgan.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar
soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Jizzax viloyati	13 937	605	13 332
Jizzax shahri	4 501	252	4 229
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	424	10	414
Baxmal	722	19	703
G'allaorol	1 090	50	1 040
Sharof Rashidov	2 530	116	2 414
Do'stlik	503	19	484
Zomin	1 087	40	1 047
Zarbdor	585	19	566
Zafarobod	297	7	290
Mirzacho'l	432	19	413
Paxtakor	493	32	461
Forish	991	14	977
Yangiobod	282	8	284

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4501 tasi (32,3 %) Jizzax shahri, 2530 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1090 tasi (7,8 %) G'allaorol hamda 1087 tasi (7,8 %) Zamin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13937 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3573 tasi (25,6 %) – savdo, 2754 tasi (19,8 %) - sanoat, 2469 tasi (17,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1792 tasi (12,9 %) - qurilish, 1095 tasi (7,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 580 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 166 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa, 164 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi va 1344 tasi (9,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida oylarida 3303 dan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1127 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (995 ta), Sharof Rashidov (566 ta), Zomin (294 ta) va G'allaorol tumanlari (261 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiobod (70 ta), Zafarobod (82), Arnasoy (113 ta) hamda Mirzacho'l (118) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1061 ta), sanoatda (723 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (527 ta) va qurilishda (426 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (33 ta), axborot va aloqada (45 ta) hamda tashish va saqlashda (97 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 771 tani tashkil etib, ulardan 729 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar-noyabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jizzax viloyati	771	729	248
Jizzax shahri	196	188	63
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	5	-
Baxmal	40	35	4
G'allaorol	55	55	25
Sharof Rashidov	197	190	57
Do'stlik	59	56	16
Zomin	69	63	34
Zarbdor	29	29	12
Zafarobod	45	37	14
Mirzacho'l	9	9	4
Paxtakor	12	10	6
Forish	44	41	8
Yangiobod	11	11	5

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,1 % yoki 314 tasi sanoat, 20,6 % yoki 150 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,4 % yoki 105 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,3 % yoki 97 tasi savdo, 0,7 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi tashish

va saqlash hamda 7,2 % yoki 53 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	248	100,0
Jizzax shahri	63	25,4
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	-	-
Baxmal	4	1,6
G'allaorol	25	10,1
Sharof Rashidov	57	23,0
Do'stlik	16	6,5
Zomin	34	13,7
Zarbdor	12	4,8
Zafarobod	14	5,6
Mirzacho'l	4	1,6
Paxtakor	6	2,4
Forish	8	3,2
Yangiobod	5	2,1

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 248 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 46,7% ga ko'proqdir Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (63 ta), Sharof Rashidov (57 ta), Zomin (34 ta) va G'allaorol tumanlari (25 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Baxmal (4 ta), Mirzach'ol (4 ta), Yangiobod (5 ta) hamda Paxtakor (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 52,0 % yoki 129 tasi sanoat, 18,1 % yoki 45 tasi savdo, 14,5 % yoki 36 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 9,7 % yoki 24 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 1 tasi qurilish, 0,4 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,9 % yoki 12 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 182 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 52,9 % ga o'sgan.

2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 182 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Jizzax shahri (74 ta), Forish (20 ta), Sharof Rashidov (15 ta), G'allaorol (14 ta) va Zomin (14 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (2 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (5 ta) to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 118 tasi qo'shma korxonalar, 64 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	182	118	64
Jizzax shahri	74	54	20
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8	6	2
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	14	10	4
Sharof Rashidov	15	7	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	14	7	7
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	2	1	1
Paxtakor	9	8	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	9	3	6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 59 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar (21 ta yoki jamidagi ulushi 35,6 %), Forish (8 ta yoki 13,6 %) va Zomin tumanlari (5 ta yoki 8,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Zarbdor, Mirzacho'l va Paxtakor (1 ta yoki 1,7 %), Baxmal (2 ta yoki 3,4 %) hamda Zafarobod tumanlari (3 ta yoki 5,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 27 ta, Rossiya Federatsiyasi - 14 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Qozog'iston Respublikasi - 4 ta va Koreya Respublikasi - 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida

Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (32 ta yoki 52,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12 ta yoki 20,3 %), savdo (5 ta yoki 8,5 %) va qurilish (5 ta yoki 8,5 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta yoki 1,7 %), tashish va saqlashda (1 ta yoki 1,7 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta yoki 1,7 %) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-65 (66)